

FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ABDUHAMIDOV Doniyorbek Yodgorxoja o'g'li

Namangan davlat universiteti

Tarix yo'nalishi,

2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15043066>

AZIM TOSHKENTNING TARIXIY YODGORLIKLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qadimiy va navqiron Toshkent shahrining Ko'kaldosh madrasasi, Baraxon madrasasi, Shayx Zayniddin bobo maqbarasi, Hazrati Imom majmuasi, Shohi Zinda, Minor masjid tarixiy obidalari, ularning bunyod etilish tarixi, arxitekturasi, me'moriy uslubi va bugungacha bosib o'tgan tarixiy yo'li va mustaqillik yillarida ularga berilayotgan e'tibor haqida ma'lumot berilgan.

Bu yodgorliklar nafaqat me'moriy ahamiyatga ega, balki mamlakatimizning diniy, ma'naviy va madaniy hayotida ham muhim o'rin tutadi. Maqolada ushbu yodgorliklarning tarixiy rivojlanishi, ularni asrab-avaylash, hozirgi restavratsiya va konservatsiya ishlari, shuningdek ularni kelajak avlodlarga etkazish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Tadqiqot tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar va arxiv materiallariga asoslangan.

Kalit so'zlari: Toshkent, tarixiy yodgorliklar, madaniy meros, me'morchilik, qadimiy inshootlar, saqlash va restavratsiya, sayyohlik, muhofaza.

HISTORICAL MONUMENTS OF GREAT TASHKENT

ANNOTATION

This article discusses the historical monuments of Tashkent, their history, architectural features, and current state. Tashkent has long been one of the major cultural, scientific, and trade centers of Central Asia. The city's landmarks, such as the Kukeldash Madrasah, Barakhan Madrasah, Shaykh Zayniddin Baba Mausoleum, Hazrati Imam Complex, Shah-i-Zinda, and Minor Mosque, reflect the rich cultural heritage of our people.

These monuments are not only of architectural significance but also play an important role in the religious, spiritual, and cultural life of our country. The article analyzes the historical development of these monuments, their preservation, current restoration and conservation efforts, as well as the measures being taken to pass them on to future generations. The study is based on historical sources, scientific literature, and archival materials.

Keywords: Tashkent, historical monuments, cultural heritage, architecture, ancient structures, preservation and restoration, tourism, protection.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ПАМЯТНИКИ ВЕЛИКОГО ТАШКЕНТА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются исторические памятники города Ташкента, их история, архитектурные особенности и современное состояние. С древних времен Ташкент был одним из крупнейших культурных, научных и торговых центров Центральной Азии. Расположенные на территории города Кукельдашская медресе, медресе Баракхана, мавзолей Шейха Зайниддина Бобо, комплекс Хазрати Имам, Шахи Зинда, мечеть Минор и другие исторические объекты отражают богатое культурное наследие нашего народа.

Эти памятники имеют не только архитектурное значение, но и играют важную роль в религиозной, духовной и культурной жизни нашей страны. В статье анализируется историческое развитие данных памятников, их сохранение, современные реставрационные и консервационные работы, а также меры, предпринимаемые для передачи их будущим поколениям. В ходе исследования были использованы исторические источники, научная литература и архивные материалы.

Ключевые слова: Ташкент, исторические памятники, культурное наследие, архитектура, древние сооружения, сохранение и реставрация, туризм, охрана.

Kirish

Toshkent shahrining tarixi ming yillar davomida shakllangan bo'lib, uning hududida ko'plab tarixiy yodgorliklar joylashgan. Ular orasida islomiy me'morchilikning eng yorqin namunalari, qadimgi qal'alar, madrasa va maqbaralar mavjud. Ushbu yodgorliklar nafaqat mamlakatimiz tarixi, balki jahon madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi. Maqolada Toshkentning tarixiy yodgorliklarini chuqur tahlil qilish, ularning bugungi kundagi ahamiyatini yoritish va muhofaza qilish choralari muhokama qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Toshkent shahrining tarixiy yodgorliklari haqida turli manbalarda qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, XIX asr tarixchisi Muhammad Solih Qoraxo'ja Toshkandiyning "Tarixi jadidaiy Toshkent" asarida shahar hududidagi madrasa va masjidlar haqida muhim tarixiy dalillarni keltirgan.

Biroq, ushbu asarda ularning aniq soni berilmagan. Shu jihatdan, rus olimi N.A. Mayev tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlar ayniqsa qimmatlidir. Uning yozishicha, XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkentning Shayxontohur dahasida 60 masjid va 3 madrasa, Sebzor dahasida 10 ta katta masjid va 3 madrasa, Ko'kcha dahasida 51 masjid va 2 madrasa, Beshyog'och dahasida esa 68 masjid va 3 madrasa mavjud bo'lgan. Ushbu raqamlar Toshkentning o'sha davrdagi diniy-madaniy muhitini aks ettiradi.

Hamda mazkur maqolani tayyorlash jarayonida arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar va davlat qarorlari tahlil qilindi.

Xususan, quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Tarixiy tahlil usuli** - Toshkentning tarixiy yodgorliklari haqidagi ma'lumotlarni o'rganish.
2. **Me'moriy tahlil** - yodgorliklarning me'moriy xususiyatlarini tahlil qilish.
3. **Hozirgi holat tahlili** - tarixiy yodgorliklarning bugungi kundagi ahamiyatini o'rganish va ularni saqlash choralari.

Natijalar

Toshkent shahrida joylashgan eng muhim tarixiy yodgorliklarning ro'yxati va ularning xususiyatlari quyida keltirilgan:

Ko‘kaldosh madrasasi (XVI asr) – Toshkentdagi eng qadimiy madrasalardan biri bo‘lib, me‘moriy jihatdan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. “Ko‘kaldosh” madrasasi Toshkent shahridagi tarixiy obidalardan biri sanaladi. Muhammad Solih Qoraxo‘ja Toshkandiyning “Tarixi jadidayi Toshkand” kitobida “Ko‘kaldosh” madrasasini Darveshxon qurdirganini yozadi va shu kitobining ba‘zi joylarida madrasani Darveshxon madrasasi deb ham ataydi. Madrasa 1551-1575-yillar orasida qurib ishga tushirilgan. Bunga dalil sifatida tarixchilar 1569-1570-yillarda yozilgan vaqfnomani keltiradilar. Unga ko‘ra, Toshkent hokimi Sulton Darveshxon bir karvonsaroyini madrasaga vaqf qilib bergani aytilgan [3].

Baroqxon madrasasi (XVI asr) – Movarounnahrning yirik ilohiy maskanlaridan biri. Baroqxon madrasasi Toshkentda qurilgan o‘ziga hos me‘moriy inshoot hisoblanadi. Madrasa 1531-1532 yillarda, ya‘ni XVI asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan. Hovlisi atrofida hujralar va ichki tarafida peshtoq bo‘lib, madrasaning g‘arbiy qismi birmuncha oldinga chiqqan. Poydevori toshdan, qalin devorlari turli hajmdagi pishiq g‘ishtdan ishlangan. Ba‘zi joylari sinchli. Baroqxon madrasasi o‘rnida dastlab 2 ta (katta va kichik) maqbara bo‘lgan. Kichik maqbarada Baroqxon qabri bor. Keyinchalik bino madrasaga aylantirilgan [4].

Shayx Zayniddin bobo maqbarasi (XIII asr) – Toshkentdagi eng qadimiy maqbaralardan biri bo‘lib, sufiylik maktabi vakillaridan bo‘lgan Shayx Zayniddin Boboga bag‘ishlangan. Maqbara – Toshkentdagi me‘moriy yodgorlik (XIII-XIV asrlar). Rivoyatlarga ko‘ra, maqbara Amir Temur davrida Shayx Zayniddin (XIII asr)ga atab barpo qilingan (q. Zayniddinbobo). Shahar hududida, qabriston o‘rtasidagi balandlikda joylashgan, peshtoqgumbazli, cho‘zinchoq maqbaraxonaqoxlar turiga mansub. Atrofida boshqa turli binolar – tobutxona, chillaxona (XII-XIII asrlar), oshxona, ayvonli masjid, chortoq va boshqalar bor [5].

Qadimiy Ming O‘rik muzey-shahri – Markaziy ko‘chalardan birida Ming O‘rik nomini olgan noyob tepalik joylashgan. Ushbu tepalik turk hoqonligining poytaxti Chochni muhofaza qilgan qadimiy qal‘a vayronalari hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, shahar eramizning I asri boshida Markaziy Osiyoni arablar istilo qilishidan oldin mavjud bo‘lgan. Olimlarning taxminlariga ko‘ra, majmua turk hukmdorlarining qadimiy qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan. Xonalar va qurilmalarning tuzilishi bu yerda olov uchun ochiq mehroblarga ega qadimgi majusiy ibodatxonalar joylashgan [6].

XIX asr oxiridagi holatga ko‘ra, Toshkentning to‘rtta asosiy dahasi bo‘yicha masjid va madrasalar soni quyidagi jadvalda keltirilgan[7]:

Dahalar	Masjidlar soni	Madrasalar soni
Shayxontohur	60	3
Sebzor	10	3
Ko‘kcha	51	2
Beshyog‘och	68	3
Jami	189	11

Quyida keltirilgan jadvalda Toshkent shahridagi muhim tarixiy yodgorliklar haqidagi batafsil ma‘lumotlar keltiraman:[7;8;9;10;11]

Nomi	Qurilish yili	Hududi	Aniq manzili	Me'moriy uslubi	Asosiy xususiyatlari	Hozirgi holati
Ko'kaldo sh madrasasi	XVI asr (1551-1575)	Shayxontohur tumani	Chorsu bozori yaqinida	Markaziy Osiyo islomiy me'morchiligi	Ikki qavatli, gumbazli, katta ayvon va hujralar mavjud	Tiklangan, sayyohlik va ilmiy markaz sifatida foydalanilmoqda
Baroqxon madrasasi	XVI asr (1530-1536)	Shayxontohur tumani	Hazrati Imom majmuasi tarkibida	Temuriylar va Shayboniylar davri arxitekturasini	Moviy gumbaz, koshinkor naqshlar, arabcha yozuvlar	Restavratsiya qilingan, madaniy meros obyekt sifatida foydalaniladi
Shayx Zayniddin bobo maqbarasi	XIV asr	Shayxontohur tumani	Sag'bon ko'chasi, Shayx Zayniddin qabristoni hududi	O'rta asr islomiy me'morchiligi	Moviy gumbaz, murakkab naqshlar, sarkofagli maqbara	Saqlanib qolgan, ziyoratgoh sifatida foydalaniladi
Qadimiy Ming O'rik muzey-shahri	IV-VIII asrlar	Sebzor dahasi	Toshkent markazi yaqinida	Qadimgi sug'diy va turkiy me'morchilik uslubi	Qadimiy Toshkentning ilk shahar markazi bo'lgan, devor qoldiqlari saqlangan	Arxeologik yodgorlik sifatida o'rganilgan, muzey holida foydalaniladi

Muhokama

Toshkentning tarixiy yodgorliklari nafaqat mamlakatimiz tarixining guvohlari, balki sayyohlikni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Shu sababli, hukumat tomonidan qator qarorlar qabul qilinmoqda:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-apreldagi "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish to'g'risida"gi qarori;
- 2020-yilda qabul qilingan "Tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish va asrash bo'yicha davlat dasturi".

Xulosa

Toshkent shahrining tarixiy yodgorliklari milliy merosimizning ajralmas qismidir. Ularni asrab-avaylash, tadqiq qilish va targ'ib qilish orqali shahar tarixini yanada chuqurroq o'rganish va sayyohlik salohiyatini oshirish mumkin. Shuningdek, davlat tomonidan olib borilayotgan restavratsiya ishlari yodgorliklarning uzoq yillar saqlanishiga xizmat qiladi.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Mukminova R. To'rt asr oldingi Toshkent. – T., 1984. – B.8.
2. Mayev N. A. Aziatskiy Tashkent (Materiali dlya statistiki Turkestanskogo kraya). Yejegodnik. Pod. red. N.A.Mayeva, 1876, - S. 260-271).
3. [Ko'kaldosh madrasasi](#) - meros.uz.
4. [Baroqxon peshtoqida nima yozilgan](#) – muslim.uz
5. [Shayx Zayniddin bobo maqbarasi](#) - meros.uz.
6. [Qadimiy Ming O'rik muzey-shahri](#) - Otpusk.uz.
7. Mayev. N. A. (1877). *Turkestan Territory. Volume 2: Tashkent City*. St. Petersburg: Military Printing House.